




**NAVOIY VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2024- YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 9 157,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 113,6 % ni tashkil etdi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 987,0 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 10,8 % ga to‘g‘ri keldi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishslashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 374,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,5 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,0 % (4,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 85,3 % (89,2 %) va quyi texnologiyalisi – 5,6 % (6,5 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

2024- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 775,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 131,6 %), 4,6 ming tonna natriy sianidlari va sianidoksidlari (116,8 %), 45,4 ming m<sup>3</sup> Kislorod (4,7 m.) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	9,4	7,6	-1,8
Yogurt , tonna.	0,3	0,1	-0,2
Xlor, tonna.	420,0	369,0	51,0
Argon, ming m <sup>3</sup> .	1,7	119,9	118,2
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	9,7	45,4	35,7
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	3,9	4,6	0,7
Ammoniy sulfat, ming t azot.	0,3	0,4	0,1
Vodorod xlorid (xlorid kislota), ming t.	9,3	5,6	-3,7
Natriy hidroksidi (kaustik soda), ming t.	4,3	4,6	0,3
Portlandsement, ming tonnna.	70,0	178,5	108,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	588,9	775,0	186,1

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Argon ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyida)

**Argon** – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.


Viloyatimizda 2024- yil yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 119,9 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,0 m. ga ko'paydi.



## Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyida)

**Vodorod xlorid** – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olingenida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 5,6 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,6 % ni tashkil etgan.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Kislород ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyida)

**Kislород** – rangsiz, hidsiz va ta’msiz gaz, ko’k kristall hosil qiladi. Kislород eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.


2024- yilning yanvar oyida jami 45,4 ming m<sup>3</sup> kislород ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 m. ga oshdi.



## Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar oyida)

**Plastmassa quvurlar** – asosan, suv bilan ta’minalash va kanalizatsiya tizimlarida qo’llanadi.

2024- yilning yanvar oyida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 775,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 31,6 % ga ko’paygan.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko’ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 80,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 5 937,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 57,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 165,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 227,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 573,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 17,2 % ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 149,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



### Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to‘qimachilik gazlamalari, to‘qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 8,4 % ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 79,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 791,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,6 % ini) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 14,3 % ga, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 18,3 % ga hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 27,9 % ga ko'paygan.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	975,0	1 114,0	139,0
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	523,9	620,0	96,1
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	127,5	163,0	35,5

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishslash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,8 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 75,9 % ga hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,6 % ga oshdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3 190,4	3 593,6	403,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 633,2	11 620,5	-1 012,7
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2 389,8	4 204,2	1 814,4

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra